



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: экономические риски.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalar misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: deкупpling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalari misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayavitdinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнесинг иқтисодийёт тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

**SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES
VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI O‘RNI**

**РОЛЬ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПОВЫШЕНИИ
ЭФФЕКТИВНОСТИ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ**

**THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN INCREASING THE
EFFICIENCY OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN
UZBEKISTAN**

Mirjalolova Muazzamxon Mirjalil qizi
Namangan Davlat Texnika Universiteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda sun’iy intellekt texnologiyalarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati samaradorligiga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqotda statistik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilib, sun’iy intellektning biznes jarayonlarini takomillashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish hamda raqobatbardoshlikni kuchaytirishdagi o‘rni baholandi. Tadqiqot natijalari asosida sun’iy intellekt texnologiyalarini tadbirkorlik faoliyatiga samarali joriy etish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, raqamli iqtisodiyot, iqtisodiy samaradorlik, innovatsiyalar.

В статье проанализировано влияние технологий искусственного интеллекта на эффективность малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане. В исследовании использованы статистический и сравнительный методы анализа, дана оценка роли искусственного интеллекта в совершенствовании бизнес-процессов, повышении эффективности управления и конкурентоспособности предприятий. По результатам исследования разработаны практические рекомендации по расширению применения технологий искусственного интеллекта.

Ключевые слова: искусственный интеллект, малый бизнес, частное предпринимательство, цифровая экономика, экономическая эффективность, инновации.

This article examines the impact of artificial intelligence technologies on the efficiency of small businesses and private entrepreneurship in Uzbekistan. Statistical and comparative analysis methods were applied to evaluate the role of artificial intelligence in improving business processes, management efficiency, and competitiveness. Based on the research findings, practical recommendations were developed to promote the effective implementation of artificial intelligence technologies in entrepreneurial activities.

Keywords: artificial intelligence, small business, private entrepreneurship, digital economy, economic efficiency, innovation.

So‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sun’iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyotning turli tarmoqlarida qo‘llanilish ko‘lamini sezilarli darajada kengaytirdi. Zamonaviy biznes muhitida sun’iy intellekt ma’lumotlarni qayta ishlash, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va biznes jarayonlarini avtomatlashtirishning muhim vositasiga aylanmoqda.

O‘zbekistonda ham raqamli transformatsiyani jadallashtirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish va tadbirkorlik subyektlarini zamonaviy texnologiyalar bilan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasi

hamda sun'iy intellektni rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar iqtisodiyotning turli tarmoqlarida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratmoqda [2].

Mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi yildan-yilga ortib borayotgani ushbu sohada samaradorlikni oshirishning yangi mexanizmlarini izlashni taqozo etmoqda. Bozor raqobatining kuchayishi, iste'molchilar talabining o'zgarishi hamda boshqaruv jarayonlarining murakkablashuvi tadbirkorlik subyektlaridan zamonaviy raqamli yechimlardan foydalanishni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini baholash ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatidagi o'rini baholash, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini tahlil qilish hamda amaliyotga joriy etishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Shunga qaramay, O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligiga ta'sirini kompleks iqtisodiy baholash hamda ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlariga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli emas. Bu holat mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi O'zbekiston sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalarini kichik biznes faoliyatiga joriy etishning ustuvor yo'nalishlari kompleks baholanganligi hamda ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha iqtisodiy jihatdan asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan tavsiflanadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyot va tadbirkorlik faoliyatiga ta'siri bo'yicha so'nggi yillarda ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda sun'iy intellektning biznes jarayonlariga ta'siri turli yo'nalishlarda tadqiq etilgan.

Jumladan, N. Soni, E. Sharma, N. Singh va A. Kapoor sun'iy intellekt texnologiyalarining biznes modellarini takomillashtirish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini asoslab berganlar [1]. Mualliflarning ta'kidlashicha, sun'iy intellekt korxonalarga ma'lumotlardan samarali foydalanish va bozor o'zgarishlariga tez moslashish imkonini yaratadi.

F. Emmert-Streib va hammualliflari raqamli iqtisodiyot sharoitida sun'iy intellekt hamda katta ma'lumotlar texnologiyalarining iqtisodiy jarayonlarga ta'sirini tahlil qilib, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimlari zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi ekanligini qayd etganlar [2].

O'zbekiston sharoitida sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyot masalalari UNDP tomonidan tayyorlangan "Digital Economy of Uzbekistan: The State of Digital Entrepreneurship and Artificial Intelligence" hisobotida yoritilgan. Hisobotda mamlakatda raqamli tadbirkorlik ekotizimi shakllanib borayotgani, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasi rivojlanayotgani hamda sun'iy intellektni iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish uchun mavjud imkoniyatlar tahlil qilingan [4].

Mahalliy tadqiqotlarda ham raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. S.B. Bobokulov raqamli transformatsiya jarayonlarining iqtisodiyot rivojlanishidagi ahamiyatini yoritib, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasining ustuvor yo'nalishlarini ilmiy jihatdan asoslab bergan [5]. D. Rakhmatov esa sun'iy intellektni rivojlantirishning huquqiy va institutsional asoslarini tahlil qilib, ushbu texnologiyalarni iqtisodiyotga joriy etishning strategik ahamiyatini ko'rsatgan [6].

Muallif tomonidan olib borilgan avvalgi tadqiqotlarda kichik biznesni raqamlashtirish masalalari o'rganilgan bo'lsa, ushbu maqolada mazkur yo'nalish sun'iy intellekt texnologiyalari misolida davom ettirildi. Tahlil qilingan ilmiy manbalar sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Biroq mavjud tadqiqotlarda O'zbekiston sharoitida sun'iy intellektning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligiga ta'siri zamonaviy statistik ma'lumotlar asosida kompleks baholanmagan. Shu bois ushbu maqolada O'zbekiston sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalarining kichik biznes faoliyatiga ta'siri zamonaviy statistik ma'lumotlar asosida baholanadi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tadqiqotda O‘zbekistonda sun’iy intellekt texnologiyalarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga ta’siri kompleks yondashuv asosida baholandi. Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP), Jahon banki hamda sun’iy intellekt va raqamli iqtisodiyotga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar tashkil etdi [3;4;13].

Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tanlandi. Tadqiqot predmeti esa sun’iy intellekt texnologiyalarining mazkur subyektlar faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi iqtisodiy munosabatlardan iborat.

Tadqiqot jarayonida statistik, qiyosiy, analitik va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. Statistik tahlil yordamida kichik biznes subyektlarining rivojlanish ko‘rsatkichlari hamda raqamli iqtisodiyotning joriy holati baholandi. Qiyosiy tahlil orqali sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanayotgan korxonalar faoliyatining ustun jihatlari an’anaviy boshqaruv usullari bilan taqqoslandi. Analitik yondashuv asosida sun’iy intellektning marketing, moliyaviy boshqaruv, mijozlarga xizmat ko‘rsatish va biznes jarayonlarini avtomatlashtirishdagi iqtisodiy samaradorligi tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirishda ilmiy abstraksiyalash, sintez va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar asosida O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini samarali joriy etish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Statistik ma’lumotlar tahlili O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi sun’iy intellekt texnologiyalarini kichik biznesga joriy etish uchun zarur shart-sharoitlar shakllanayotganini ko‘rsatadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida raqamli infratuzilma kengayib, biznes subyektlarining zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1-iyul holatida mamlakatda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari soni 1 200,4 ming birlikni tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkich kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi salmog‘i yuqori ekanligini hamda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini tasdiqlaydi [3].

1-jadval

**O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari tarkibi
(2025-yil 1-iyul holatiga)**

Ko‘rsatkich	Soni (ming birlik)	Ulushi (%)
Kichik korxona va mikrofirmalar	487,1	40,6
Dehqon xo‘jaliklari	414,3	34,5
Yakka tartibdagi tadbirkorlar	270,6	22,5
Hunarmandlar	21,6	1,8
Oilaviy tadbirkorlar	5,9	0,5
Import tovarlari sotuvchilari	1,0	0,1
Jami	1200,4	100,0

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi [3].

Jadval natijalariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar jami subyektlarning 63,1 foizini tashkil etadi. Hisob-kitoblar natijasida aynan ushbu toifadagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish yuqori iqtisodiy samara berishi aniqlandi. Bunga sabab ularning bozor talabiga tez moslasha olishi, boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilishi hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish xarajatlarining nisbatan pastligidir.

UNDP va Digital Transformation Scoreboard hisobotlarida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda IT xizmatlari eksporti 2020-yildagi 16 mln AQSH dollaridan 2023-yilda 344 mln AQSH dollariga yetgan, ya’ni uch yil davomida 21,5 baravar o‘sgan [4;8]. Ushbu ko‘rsatkich mamlakatda raqamli texnologiyalar bozori jadal rivojlanayotganini hamda sun’iy intellekt asosidagi biznes yechimlariga talab ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish natijasida kutiladigan iqtisodiy samaralar

Faoliyat yo‘nalishi	Qo‘llaniladigan AI texnologiyasi	Kutiladigan iqtisodiy samara
Marketing	AI-analitika va tavsiyaviy tizimlar	Sotuv hajmi va mijozlar sonining ortishi
Mijozlarga xizmat ko‘rsatish	Chatbot va virtual yordamchilar	Xizmat ko‘rsatish tezligi va sifati oshadi
Moliyaviy boshqaruv	Prognozlash algoritmlari	Moliyaviy risklar kamayadi
Logistika	Talab prognozi va avtomatik rejalashtirish	Xarajatlar optimallashtirish
Strategik boshqaruv	Qarorlarni qo‘llab-quvvatlovchi AI tizimlari	Resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi

Manba: [1], [2], [4] manbalar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Jadvalda keltirilgan natijalar sun’iy intellekt texnologiyalarining kichik biznes faoliyatida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy omillaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, marketing va moliyaviy boshqaruv jarayonlarida sun’iy intellektidan foydalanish korxonalarga bozor talabini aniq prognozlash, xarajatlarni kamaytirish hamda resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarini kichik biznesga joriy etishning SWOT tahlili

Kuchli jihatlar	Zaif jihatlar
Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash	AI mutaxassislari yetishmasligi
Raqamli infratuzilmaning rivojlanishi	Joriy etish xarajatlarining yuqoriligi
IT Park va startap ekotizimi	Hududlar o‘rtasidagi raqamli tafovut
Imkoniyatlar	Tahdidlar
Eksport salohiyatining ortishi	Kiberxavfsizlik xatarlari
Yangi ish o‘rinlari yaratish	Ma’lumotlar maxfiylik bilan bog‘liq xavflar
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish	Texnologik qaramlik

Manba: [4], [5], [6] ma’lumotlari umumlashtirilib, muallif tomonidan tuzildi.

SWOT tahlili natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda sun’iy intellekt texnologiyalarini kichik biznesga joriy etish uchun mavjud imkoniyatlar zaif jihatlariga nisbatan ustunlik qiladi. Shu bilan birga, kiberxavfsizlik, malakali kadrlar taqchilligi hamda hududlar kesimida raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi bir xil emasligi mazkur jarayonni sekinlashtiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘tkazilgan tahlillar sun’iy intellekt texnologiyalarini kichik biznes faoliyatiga bosqichma-bosqich joriy etish korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish, boshqaruv sifatini yaxshilash hamda ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llayotgan tadbirkorlik subyektlarini grant dasturlari, imtiyozli kreditlar va malaka oshirish dasturlari orqali qo‘llab-quvvatlash ushbu jarayon samaradorligini yanada oshiradi.

Olingan natijalar asosida sun’iy intellekt texnologiyalarini kichik biznes faoliyatiga bosqichma-bosqich joriy etish ustuvor yo‘nalish sifatida tavsiya etiladi. Jumladan, marketing, moliyaviy boshqaruv va mijozlarga xizmat ko‘rsatish jarayonlarini raqamlashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning eng istiqbolli yo‘nalishlari sifatida baholanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Mazkur texnologiyalar biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilash, operatsion xarajatlarni optimallashtirish hamda mijozlarga xizmat ko‘rsatish darajasini oshirishga xizmat qiladi. O‘tkazilgan tahlillar O‘zbekistonda sun’iy intellekt

texnologiyalarini joriy etish uchun zarur institutsional va huquqiy asoslar shakllanayotganini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, malakali mutaxassislar tayyorlash, raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish va tadbirkorlarning raqamli kompetensiyalarini oshirish ushbu jarayonning samaradorligini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, kichik biznes subyektlarini moliyaviy rag‘batlantirish, AI bo‘yicha malaka oshirish dasturlarini rivojlantirish hamda mahalliy dasturiy yechimlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish hamda mamlakatda raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Kelgusida sun‘iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy samaradorligini ekonometrik modellar asosida baholash istiqbolli ilmiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Soni N., Sharma E., Singh N., Kapoor A. Impact of Artificial Intelligence on Businesses: From Research, Innovation, Market Deployment to Future Shifts in Business Models // *arXiv preprint*. – 2019. – URL: <https://arxiv.org/abs/1905.02092>
2. Emmert-Streib F., Yli-Harja O., Dehmer M. From the Digital Data Revolution toward a Digital Society: Pervasiveness of Artificial Intelligence // *Machine Learning and Knowledge Extraction*. – 2020. – Vol. 2, No. 3. – P. 367–388.
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlari. – Toshkent, 2025.
4. United Nations Development Programme (UNDP). Digital Economy of Uzbekistan: The State of Digital Entrepreneurship and Artificial Intelligence. – Tashkent: UNDP, 2025.
5. Bobokulov S.B. Main Development Directions of the Digital Economy: “Digital Uzbekistan–2030” Strategy and its Essence // *Journal of Marketing and Emerging Economics*. – 2025. – Vol. 5, Issue 2. – P. 50–54.
6. Rakhmatov D. Balancing Innovation and Regulation: Uzbekistan’s Strategy for AI-Driven Digital Transformation. – Tashkent, 2024.
7. Digital Transformation Scoreboard: Uzbekistan. European Centre for Sustainable Business and Finance. – 2024.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF–6079-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ–4996-sonli Qarori.
10. World Bank. Digital Development Overview Report. – Washington, DC: World Bank, 2024.
11. Mirjalolova M.M. *Innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarning iqtisodiy taraqqiyotga ta‘siri* // Global iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2025. – №6.
12. Mirjalolova M.M. *The Role of Digital Transformation in Economic Growth and Human Capital Formation: Evidence from Uzbekistan* // International Bulletin of Engineering and Technology. – 2026. – Vol. 6, No. 5. DOI: 10.5281/zenodo.20567516.
13. Mirjalolova M.M. *Sun‘iy intellekt va raqamli iqtisodiyotning mehnat unumdorligiga ta‘siri* // International Bulletin of Engineering and Technology. – 2026. – Vol. 6, No. 5. DOI: 10.5281/zenodo.20567543.
14. Mirjalolova M.M. *Digitalization and Small Business Competitiveness in Developing Economies* // Academic Research in Modern Science. – 2026. – Vol. 5, No. 19. DOI: 10.5281/zenodo.20593139.
15. Mirjalolova M.M., Rashidov R.A. *O‘zbekiston iqtisodiyotini raqamlashtirishning institutsional sharoitlari va samaradorlik ko‘rsatkichlari* // "Iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi: milliy, mintaqaviy va xalqaro tajriba xususiyatlari" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – 2026. – 24–25-aprel?